



Tadqiqot **uz**

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**CONFERENCES.UZ**

**31 ЙУЛ  
№30**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 30-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
25-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
30-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-25**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
30-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-25**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

### "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 30-күп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

#### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

#### **5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

#### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

#### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ГЕОГРАФИЯ**

**1. Aximbetov Sultanbek**

GEOGRAFIYA ENG QADIMGI FANLARDAN BIRI. GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR,  
G'OYA VA BILIMLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARINI AJRATISH .....7

**2. Abatbaeva Nargiza**

GEOGRAFIYA FANI TARIXI VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI.....9

**3. Qurbanova Gulnoza Abduholiqovna**

O'ZBEK GIDRONIMIYASI BO'YICHA DASTLABKI TADQIQOTLAR.....11

**4. Nilufar Aliyeva Qo'chqar qizi**

GEOGRAFIK QOBIQ VA UNING UMUMIY QONUNIYATLARI.....14



## ГЕОГРАФИЯ

### GEOGRAFIYA ENG QADIMGI FANLARDAN BIRI. GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR, G'OYA VA BILIMLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARINI AJRATISH

**Aximbetov Sultanbek**  
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat  
Pedagogika Instituti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada geografiya fanining daslabki bilimlari, fanning qanday vujudga kelishi, asrimiz boshidagi olimlar fikrlari haqqida so'z boradi

**Kalit so'zlar:** Gomer, Aristotel, Pifagor, Eratosfen, nilometr, kosmografiya asari, kosmos, geodeziya, kartografiya, gidrologiya

Qadimgi yoki antik davr bosqichida ibridoiy odamlarning o'zi yashab turgan joyni o'rghanish, yashash uchun qulay, tabiiy resurslarga boy joylarni topish va tasvirlashga bo'lgan intilishlari asnosida dastlabki Geografik bilimlar to'planib borgan. Er.avv. 2-ming yillikda finikiyaliklar O'rta dengizdan Gibraltar bo'g'izi orqali suzib o'tib, Afrika qirg'oqlari bo'y lab Hindistongacha suzib borganlar. Shu paytdan Osiyo va Yevropa nomlari paydo bo'lgan. Bu davrda yunonlar va rimliklar o'sha paytda ma'lum bo'lgan hududlarni tasvirlab yozish bilan birga xaritalarini ham tuzdilar. Gomer er.avv.XII asrda O'rta dengiz va uning atrofini tasvirlovchi dunyo xaritasini tuzdi. Pifagorning shogirdlari er.avv. VI asrda Yerning sharsimonligini aytdilar. Aristotel, er.avv. IV asrda, Yerning sharsimonligini, issiqlik mintaqalari mavjudligini mantiqiy jihatdan isbotladi. Olamning markazida Yer turadi degan geotsentrik nazariyani ilgari surdi. Eratosfen er.avv. III asrda birinchi bo'lib Yerning kattaligini o'lchadi va "Geografika" nomli kitobini yozib, geografiya fanining mustaqil fan bo'lib chiqishiga asos soldi. Eramizning II asrda Ptolemy 8 jiddlik "Geografiya" asarini yozdi va xaritalarni tuzishda kartograf ya proyeksiyalar va daraja to'rini ixtiro qildi, dastlabki "Atlas" ni yaratdi. Shu davrda Strabon ham 17 jilddan iborat "Geografiya" asarini yozdi. Bu bosqichning asosiy natijalari: geografiya fani vujudga keldi va "geografiya" nomli kitoblar yozildi, dunyo xaritalari tuzildi, geografik koordinatalar va daraja to'ri ixtiro qilindi, Yerning sharsimonligi mantiqiy isbotlandi va o'lchamlari aniqlandi.

**O'rta asrlar bosqichi.** Bu davrda geografiya, umuman, ilm-fan, asosan Sharqda, xususan, O'rta Osiyo, Misr, Eronda rivojlandi. Geografiya fani, asosan o'lkashunoslik, kartografiya, geodeziya yo'nalishida rivojlandi. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy IX asrda Yerning sharsimon ekanligini isbotlab, uning o'lchamlarini nisbatan aniq o'lchadi. "Surat-al-Arz" nomli kitob yozib, Sharq geografiyasiga asos soldi.

Geografiya fanining rivojida Abu Rayhon Beruniyning xizmati beqiyos. Uning geografiyaga oid 22 ta asari bo'lib, shundan 12 tasi geodeziya, 4 tasi kartografiya, 3 tasi iqlimshunoslik, 3 tasi mineralogiyaga oid va hozirgi kunda ham dolzarb hisoblanadi. U yasagan globus esa Yerning sharsimonligini isbotlash va tushuntirishda, Shimoliy yarimshar tabiatini o'rghanishda tengi yo'q manba bo'lgan. U yunon va rim olimlaridan farq qilib olamning gelotsentrik tuzilishi nazariyasi ni rivojlantirishga hissa qo'shgan. Abdurazzoq Samarcandiy Hindistonga sayohat qilib, Eron, Pokiston, Arabiston dengizi haqida boy ma'lumotlar to'pladi. Ahmad Farg'oniy astronomiya, iqlimshunoslik gidrologiya fanlariga oid asarlar yaratdi. U Nil daryosining suv sarfini o'lchaydigan "Nilometr" asbobini yaratib, daryolarning suv sarfini o'lchash va unga bog'liq ishlarni to'g'ri rejalashtirishga asos yaratdi. Umar Xayyom tomonidan ko'plab xaritalar tuzildi. Yoqut Hamaviy geografik lug'at – o'sha davrdagi geografik bilimlar ensiklopediyasini tuzdi. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asari orqali geografiya faniga katta hissa qo'shdi.

Bosqichning asosiy natijalari: Yerning shakli va o'lchamlari aniqroq o'lchandi, geodeziya, kartografiya, gidrologiya, iqlimshunoslik fanlari shakllandi va rivojlandi, o'lkashunoslik va mamlakatshunoslikka bag'ishlangan yirik asarlar yozildi, Sharq, xususan, O'rta Osiyo geografi-



yasiga asos solindi.

**Buyuk geografik kashfiyotlar bosqichi.** XV asrning 2-yarmiga kelib, Yevropada tabiiy resurslar va xomashyoga boy deb hisoblangan Hindiston va Xitoyga yangi yo'llarni topish ishlari boshlandi. Natijada "Buyuk geografik kashfiyotlar" qilindi. Buyuk geografik kashfiyotlar asosan 3 ta yo'nalishda olib borildi: 1) janubiy – Afrika bo'ylab; 2) g'arbiy – Atlantika okeani orqali; 3) shimoliy – Yevrosiyoning qutbiy o'lkalari va shimoliy qirg'oqlari bo'ylab. Ushbu bosqich 1492-yil ispaniyalik Xristofor Kolumbning Amerikaga 1-sayohatidan boshlanadi. X.Kolumb Amerikaga jami 4 marta borib, har safar yangi-yangi orollarni kashf etishiga qaramay, u yerlarni Hindiston emasligini bilmagan. 1499–1501-yillari Amerigo Vespuuchchi Janubiy Amerika qirg'oqlarini tekshirib, bu yerlar Hindiston emas, yangi yerlar ekanligini yozadi. 1507-yilda M.Valdzemuller "Kosmografiyaga kirish" nomli asarida bu yangi yerkarni "Terra Amerika" deb nomlaydi. Keyinchalik Mercator o'zi tuzgan xaritalarda har ikki materikni ham shu nom bilan ataydi. 1498-yili portugaliyalik Vasko da Gama ekspeditsiyasi Afrikani aylanib o'tib, Yevropadan Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochdi. 1519–1521-yillarda ispaniyalik Fernan Magellan ekspeditsiyasi dunyo bo'ylab sayohatini amalga oshirdi. Natijada Yerning sharsimonligi amalda isbotlandi va Dunyo okeanining yaxlitligi ma'lum bo'ldi.

Yuqorida aytilgan va boshqa o'nlab ekspeditsiyalarda to'plangan ma'lumotlar geografik bilimlarning kengayishiga va takomillashuviga olib keldi. 1544-yilda S. Myunsterning "Kosmografiya", 1650-yili golland olimi B.Vareniusning "Umumiyy geografiya" nomli asari bosilib chiqdi. G.Merkator xaritalarning matematik asosini, kartografik proyeksiyalarni ishlab chiqdi. Bularning bari ilmiy geografiya rivojlanishi uchun asos bo'ldi.

Bu bosqichning asosiy natijalari: Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya materiklari kashf etildi; Yerning sharsimonligi va Dunyo okeanining uzlusiz, yaxlitligi amalda isbotlandi; ilgari noma'lum bo'lgan Tinch okeanining mavjudligi va uning eng katta okean ekanligi, Yer yuzining katta qismi quruqlik emas, suvlikdan iboratligi aniqlandi.

**Ilmiy geografik ishlar bosqichi.** XVII asrga kelib fanlarning rivoj lanishida keskin ildamlash ro'y berdi. Geografiyada maxsus ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirila boshlandi. Bunday ekspeditsiyalardan eng muhimlari: 1725–1741-yillarda V.Bering va A.Chirikov boshchiligidagi rus ekspeditsiyasi, 1785–1788-yillarda J.Laperuz rahbarligidagi fransuz ekspeditsiyasi, 1768–1779-yillarda J.Kuk boshchiligidagi 3 marotaba dunyo bo'ylab ingliz ekspeditsiyasi. Bu ekspeditsiyalar tomonidan Kuril orollar, Kamchatka va Chukotka yarimorollari, Osiyoning shimoliy qirg'oqlari, Afrika va Janubiy Amerikaning ichki qismlari, Avstralaliyaning sharqiy sohillari, Yangi Zelandiya, Yangi Kaledoniya, Janubiy Georgiya, Jamiat, Gavayi, Kuk va boshqa orollar o'rGANildi. Yerning ichki qismlari, tektonik harakatlar haqidagi bilimlarning to'planishi bilan tabiiy geografiyadan geologiya ajralib chiqdi, Yer yuzasi relyef, yer usti va osti suvlari, iqlim, shamollar, o'simliklar haqidagi bilimlarning kengayishi esa geomorfologiya, gidrologiya, meteorologiya va geobotanika fanlarining mustaqil fan darajasida rivojlanishiga olib keldi. Ushbu bosqichda ilmiy ishlar, ko'pincha o'rGANilgan yerkarning geografik tavsifga bag'ishlangan bo'lib, yangi kitoblar va xaritalar ishlangan..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Rafiqov, H.Vahobov, A.Qayumov, Sh "Amaliy geografiya" Toshkent-2012
2. Vahobov X, Tillaboyeva M "Iqtisodiy geografiya asoslari" Toshkent
3. [www.ZiyoNet.uz](http://www.ZiyoNet.uz)



## GEOGRAFIYA FANI TARIXI VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI

Abatbaeva Nargiza Ajiniyoz nomidagi  
Nukus Davlat Pedagogika Instituti talabasi

**Annotatsiya:** *Bu maqolada geografiya fani tarixi, qanday paydo bo'lgan, u qanday qilib insonlar hayotida ajralmas o'r'in egallashi mavzusida fikrlar yuritilgan*

**Kalit so'zlar:** *relyef, iqlim, suv, tuproq, o'simlik, hayvonlar, ahol, tabiiy resurslar, dunyo iqtisodiyoti, mamlakatlarning tabiatini va iqtisodiyoti, okeanlar va alohida okeanlar, xarita*

Geografiya tufayli katta geografik kashfiyotlar amalga oshirildi. Geografiya insonlarga yordam beradi. Uning yordami bilan siz biron bir shahar qaerda ekanligini tushunasiz. Geografiyadan siz okeanlar, dengizlarning nomlarini bilib olasiz. Axir, ular ko'p sayohat qilish, turli mamlakatlarga borish istagida bo'ladilar, demak ulkan masofalar hozirda unchalik katta muammo emas. Geografiya fannini dunyo bilan tanishtirish uchun tonilgan, endi u chet tillarni o'rganish bilan bir qatorda o'quv jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Geografiyaning yabir jihatlarini keltirib o'tamiz, dunyo yaralib insonlar atrof-muhit, ekologiya bilan o'zaro chambarchas-bog'liq bo'lishgan. O'zining talablarini qondirish uchun inson tevarak atrofini o'rganib chiqishi, yashay olishi kerak edi. Avval sinov va xatoliklardan boshlanib, so'ngra kuzatuv va kelib chiqadigan omillarni qiylagan holda inson tabiatda yuz beradigan barcha har bir voqe, hodisalarni bayon eta boshladi, ularning paydo bo'lish xususiyatlari, sabablarinining qonuniyatini tahlil qilib bordi, natijada yangi fan shakllandi. Ilmiy bilimlarni rivojlantirish jarayonida birinchi navbatda falsafa shakllandi. Ular uni hamma narsaning ilmi yoki fan ilmi deb atashni boshladilar. Keyinchalik, umumiy fan haqiqat materiallari to'planib, tizimlashtirilishi natijasida alohida sohalarga (yo'naliishlarga) bo'linishni boshladi. Qadimgi Yunonistonda allaqachon tabiatshunoslik – geografiya, biologiya va tibbiyot vujudga kelgan. Yunoniston davri bilan geografiyaning fan sifatida shakllanishi bir-biriga bog'liq. Zamonaviy dunyoda, geografiyasiz, biz hech qaerda emasmiz va shuning uchun uning ahamiyati juda katta. Inson hayoti va umuman jamiyatning har qanday tomoni geografiya bilan chambarchas bog'liq – insonni o'rab turgan tabiat, uning ishi, dam olishi, sayyoramizning turli joylariga odamlarning sayohati. Transportning rivojlanishi bilan uzoq masofalar to'sqinlik qilmaydi. Zamonaviy geografiya o'quv jarayonining muhim qismidir. Geografik makon shunchaki unda sodir bo'layotgan jarayonlar bilan qobiq emas. Bugungi kunda ushbu ob'yektlarning tabiatiga ta'sir qiluvchi muhim va faol omilsh sifatida – iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy, ekologik jihatlari namoyon bo'ladi. Fazo-vaqt tizimlari fani sifatida, geografiyada bu tizimlarni oldindan aytib berish va boshqarish usullari mayjud. Ushbu konstruktiv fanning maqsadi geosistemalarning kelib chiqishi, tuzilishi, faoliyati, dinamikasi va rivojlanishini o'rganishdir. Geografiya jamiyatning fazoviy hayotini tashkil qilish uchun mo'ljallangan. Uning amaliy roli tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatlari muammolarini hal qilishda qatnashish bilan belgilanadi. Monitoring yordamida inson yashaydigan jug'rofiy muhitning holatini baholaydi va geografik bashoratda uning konstruktiv ahamiyati namoyon bo'ladi.

Geografik fikrlashni xaritada ko'rsatilgan hududga bog'lash kerak. U murakkab bo'lishi kerak, bitta «element» doirasida yopiq emas. Jug'rofiy tafakkurning hududiyligi va murakkabligiga, aniqligi va globalligi qo'shildi. Biroq, bu dunyoning fundamental geografik rasmini yaratish uchun etarli emas edi. XX asr o'rtalarida metodik bo'limgan geografiyaga o'tish boshlandi. Shunday qilib, ular dunyoning geografik rasmining umumiy qonuniyatlarini o'rnatishga harakat qilishdi. Geografik qonunlar masalasi etarlicha rivojlanmagan, bu dunyoning geografik manzarasini aks ettiruvchi nazariy bilimlar tizimining yo'qligidan dalolat beradi. Bir-biriga bog'liq bo'limgan tushunchalar va tadqiqot usullari shunchaki mayjud. Geografiya nazariyasi va metodologiyasining yaratilishi ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Endi maktablarda olib boriladigan o'quv dasturiga e'xtiborimizni qaratiadigan bo'lsak. Maktab geografiyasi muhim o'quv va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ta'liming ahamiyati shundaki, geografiya fan sifatida o'quvchiga bilim beradi. Bu bilim har bir madaniyatli, ma'lumotli odamga kerak va bu bilim boshqa mavzuni bermaydi. Bu Yer, uning ichki tuzilishi, relyefi, iqlimi, suv, tuproq, o'simlik, hayvonlar, aholi, tabiiy resurslar, dunyo iqtisodiyoti, mamlakatlarning tabiatini va iqtisodiyoti, okeanlar va alohida okeanlar, ularning mamlakati va boshqalar haqidagi bilimlardir. Ushbu bilimlar tufayli ko'plab tabiiy va ijtimoiy hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish mumkin, ular atrofidagi dun-



yoga yo'naltirilgan bo'lib, ular o'quvchilar uchun keng ufqlearning rivojlanishiga hissa qo'shamdi. Geografiya fan sifatida kartografik mashg'ulotlarni olib boradi. Tushuning, o'qing, xaritani biling – bu vazifalar faqat geografiya darslarida hal qilinadi. Kartadan foydalanish qobiliyati o'qish va yozish kabi ko'nikmalarga tengdir. Xarita ham ko'rgazmali vosita, ham bilim manbai. O'qituvchining vazifasi o'quvchiga ushbu bilim manbasidan foydalanishni o'rgatishdir. Xarita bilan ishslash tasavvur, fazoviy tasavvurlar, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Xarita geografiyaning ikkinchi tilidir va bundan tashqari, til matnga qaraganda o'quvchilarni idrok etishda ko'proq undaydi. Geografiya tabiiy va ijtimoiy fanlar sohasidagi bilimlarni sintez qiladi.

Geografiyani o'rganayotganda talabalar dunyoning yaxlitligi, geografik qobiqning barcha tarkibiy qismlari va komplekslarining vaqt va makonda rivojlanishi, ularning o'zaro bog'liqligi va o'zaro bog'liqligi kabi yetakchi g'oyalarni o'rganadilar. Sayyoramizning shakllanishi, uning geologik tarixi, Yer qobig'ida yuzaga keladigan tabiiy hodisalar, shuningdek, dunyoning turli xalqlarining hayoti va faoliyati, qit'alar va okeanlarning flora va faunasini va boshqa ko'plab obyektlarni hodisalar muktab o'quvchilarida katta qiziqish uyg'otmoqda bu ta'lilotning asoslari yotadi.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. A.Rafiqov, H.Vahobov, A.Qayumov, Sh "Amaliy geografiya" Toshkent-2012
2. Vahobov X, Tillaboyeva M " Iqtisodiy geografiya asoslari" Toshkent
3. [www.ZiyoNet.uz](http://www.ZiyoNet.uz)



## O'ZBEK GIDRONIMIYASI BO'YICHA DASTLABKI TADQIQOTLAR.

**Qurbanova Gulnoza Abduholiqovna**

Termiz Davlat Universiteti

Pedagogika Institutı o'qituvchisi

gulnozaqurbanova@mail.ru

tel: +998907484744

**Annotatsiya:** Barcha suv ob'yektlarining nomi gidronimlar deyiladi. Yer shari yuzasining qariyb 71 foizini 4 ta – TINCH, ATLANTIKA, HIND, SHIMOLIY MUZ okeanlari egallagan. Okeanlarning ayrim qismlari dengiz deyiladi. Quruqlikda suv to'lib qolgan chuqurliklar ko'llar deb ataladi. Kichikroq daryolar soylar, kichik soylar esa jilg'alar deb ataladi. Daryo yoki soyga qo'shiladigan suvlar irmoqlar deyiladi.

**Kalit so'zlar:** gidronimlar, suv ob'ektlari nomlari, toponimlar, gidronimlarni hosil qiluvchi atamalar.

Gidronim so'zi (yunoncha *hudor* – suv + *onoma* – atoqli ot) suvlikdagi har qanday (tabiiy va sun'iy) ob'ektlarning atoqli oti, toponim turi ma'nolarini bildiradi. Respublikamiz hududida *daryo*, *soy*, *ariq*, *kanal*, *jilg'a*, *irmoq*, *buloq*, *sharshara*, *sardoba* kabi suv ob'ektlari juda keng tarqalgan. Jumladan, Farg'ona vodiysida 6500 ga yaqin daryo, soy, jilg'alar, Zarafshon daryosining o'rta oqimida 120 ga yaqin soylar, Qashqadaryoda 3120, Surxondaryoda esa 2200 dan ortiq daryo, soy, jilg'alar borligi aniqlangan<sup>65</sup>. SHu bilan birga hozirgi vaqtida O'zbekistonda 53 suv ombori, 41 GES, 1456 nasos stansiyasi, 140 ming km.ga yaqin zovurlar, 30 ming km.dan ko'proq ichki tarmoq kanallari qurilgan, ular 4,3 mln. hektar er maydonini sug'orish uchun xizmat qiladi<sup>66</sup>. Bu suv ob'ektlarining barchasi o'z atoqli nomi – gidronimiga ega.

O'zbek gidronimiysi sohasidagi izlanishlar juda qadimiy va uzoq tarixga ega. Masalan, S.Qoraev o'zining toponimik lug'atlarida toponimlar bilan birga juda ko'plab gidronimlarning ham izohini keltirgan. X.Hasanovning "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" (1965), "Er tili" (1977), "Geografik nomlar siri" (1985) kabi bir qancha asarlarida gidronimlar izohi masalasi ham o'rganilgan edi. Masalan, olim *Tuyatortar kanali*, *To'palang daryosi*, *ko'li Xubbon* singari gidronimlarning etimologiyasiga doir qiziqarli dalillarni keltiradi<sup>67</sup>. N.Oxunov "Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari" nomli risolasida daryo nomlari (*Amudaryo*, *Sirdaryo*, *Qoradaryo*, *Oqdaryo*, *Zarafshon* kabi), suv omborlari nomlari (*Kattaqo'rg'on* suv ombori, *CHorvoq* suv ombori kabi), kanal nomlari (*Janubiy Mirzacho'l* kanali, *Ulug'nor* kanali, *Narpay* kanali, *Log'on* kanali kabi), soy nomlari (*Ohaklisoy*, *Qizilsoy*, *SHo'ralisoy*, *CHodaksoy* kabi), ko'l nomlari (*Orqako'l*, *Devonko'l*, *Oqchako'l* kabi), buloq nomlari (*Qo'tirbulloq*, *Qayroqchibulog*, *Beshbulloq*, *Oqbuloq* kabi), ariq nomlari (*Jiydaariq*, *SHo'rariq*, *CHinorariq* kabi), quduq nomlari (*Toshquduq*, *Qizilquduq*, *Otquduq* kabi), hovuz nomlari (*Toshhovuz*, *Molhovuz* kabi), zovur nomlari (*Ko'kzovur*, *Qorayog'zovur* kabi), to'g'on va quvur nomlari (*Qumto'g'on*, *Beshquvur*, *Toshquvur* kabi) singari gidronimik ob'ektlarni tasnif etadi hamda bunday gidronimlarning ayrimlarini etimologik jihatdan talqin qiladi. Masalan, *Bulung'ur* kanalining nomi asosida mo'g'ulcha so'z yotadi.

Ya'ni *bulung'ur* so'zining ma'nosi *loyqa* suv demakdir. *Arashonbulog* gidronimining birinchi komponentidagi *arashon* so'zi sanskritcha bo'lib, "shifobaxsh, iliq" ma'nolarini bildiradi. SHunga ko'ra *Arashonbulog* gidronimi "shifobaxsh buloq", "issiq buloq" ma'nolarini ifodalaydi. *Ulug'nor* gidronimining ikkinchi qismida qo'llangan "nor" so'zi arabcha "nahr" (*daryo*) so'zining mahalliy aholi talaffuzidagi fonetik variantidir. Shunga ko'ra *Ulug'nor* gidronimi "katta kanal" ma'nosini bildiradi. Yoki *Sangzor* daryosi nomi tojikcha *sang* – *tosh* va o'rinn-joy ma'nosini bildiruvchi qo'shimchadan tarkib topgan bo'lib, "toshli er, toshloq" ma'nosini ifodalaydi<sup>68</sup>.

O'zbek gidronimiysi bo'yicha dastlabki tadqiqot "Samarqand viloyati gidronimlari" (lisoniy tahlil) deb nomlanadi<sup>69</sup>. Bu nomzodlik dissertasiysi uch bobdan iborat bo'lib, uning dastlabki bobsi "Gidronimik atamalar" tahliliga bag'ishlangan. Ishning keyingi boblari esa Samarqand viloyati



dialetk va shevalarida uchrovchi gidronimlarning leksik, semantik, morfologik va etimologik tahlilini o‘z ichiga oladi. N.Begaliev keyinchalik e’lon qilgan “Samarqand toponimiyasi” nomli asarining alohida bobi “Gidronimlar – suv nomlari demak” deb nomlangan. Bu asarda *Darg’om arig’i, Jo’yi Arziz, Obi Mashhad, Chorjo’y arig’i, Shahob arig’i, Korizquduq, Qo’shquduq* kabi gidronimlarning etimologiyasiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

O‘zbek gidronimiyasi bo‘yicha ikkinchi yirik tadqiqot N.Uluqovning monografiyasidir<sup>70</sup>. Olim keyinchalik ana shu monografiya asosida tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Shuningdek, A.Muhammadjonov, M.Turdibekov, A.Otajonova kabi ko‘plab tadqiqotchilarning ishlarida ayrim gidronimlarning xususiyatlarga doir muhim kuzatishlar keltirilgan. Masalan, T.Nafasov o‘zining maqolalarida “jili”, “qashqa” formantli gidronimlarning paydo bo‘lishi, etimologiyasi haqida o‘z kuzatishlarini bayon qilgan edi. Gidronimlar filolog olimlardan tashqari juda ko‘plab geograflar, tarixchilar va etnograflar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Masalan, A.Juvonmardiev “XU1-X1X asrlarda Farg‘onada er-suv masalalariga doir” nomli asarida *Norin, Sirdaryo, SHahrixon, Dalvarzin, Andijonsoy* kabi bir qancha gidronimlarning shakllanishi haqida fikr bildirgan edi<sup>71</sup>. Y.Qosimov esa Namangan vohasining sug‘orilish tarixidan” nomli asarida o‘sha viloyatdagi *Qalmiqariq, Bog’ish, Qurama, Mamay, Beshatmon, Ko’kjar* kabi tarixiy qabilan, urug‘ nomlari bilan atalgan ariqlar, *Boyariq* (hozirgi *Namangansoy*), *Eshonbobo kanali, YAngiariq, Mutagan, Xonariq* kabi boshqa o‘nlab suv ob’ektlarining nomlanishi haqida fikr yuritgan.

Gidronimlar ma’lum bir suv ob’ektlariga nom bo‘lar ekan, bunda nisbiylik tamoyiliga ham amal qilinadi. YA’ni bunga ko‘ra gidronimik ob’ektarning xususiyatlari o‘sha gidronimlarda to‘la o‘z aksini topmagan bo‘ladi. Masalan, Buxoro viloyatining SHofirkon tumanida *Kattajilvon, Kichikjilvon* degan ariqlar bor. Bu ariqlar nomi tarkibidagi *jilvon* so‘zi toponimdir. Bu ob’ektga yaqin bo‘lgan ariqlarni nomlash uchun o‘sha toponim oldidan *katta* va *kichik* so‘zlar qo‘llangan. Yoki *Janubiy Farg‘ona kanali, Janubiy Mirzacho’l kanali* kabi gidronimlar haqida ham shunday fikrni aytish mumkin.

Suv ob’ektlariga nom qo‘yishda uning belgi, xususiyatlari asosida yuzaga kelgan ziddiyat yoki oppozitsiya ham inobatga olinadi. Masalan, *SHirinbulog, Qo’tirbulog* va boshqalar.

Gidronimlar shakl jihatdan sodda-tub, sodda-yasama, qo‘shma va birikmali xususiyatlarga ega bo‘ladi. Masalan, *Qorasuv, Qoradaryo, Oqdaryo* kabi gidronimlar tarkibi ikki qismdan iborat qo‘shma so‘zlardir. Lekin shu bilan birga ayrim gidronimlarning tarkibiy tuzilishini hozirgi davrga ko‘ra aniq belgilab bo‘lmaydi. Masalan, Namanganda *Qarg‘aliko’l, To’ng’izo’ldi, Qorachig‘ay* kabi ariq nomlari bor. Ularning shakllanishi, etimologiyasi haqida turli xil qarashlar mavjud. Shuningdek, O‘zbekiston hududida juda ko‘plab etnogidronimlar mavjud: *Xitoyariq, Farg‘ona arig’i, Qirg‘izbulog, Qipchoqariq* gidronimlari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari O‘zbekiston hududidagi ayrim gidronimlar antropogidronim shaklidadir: *Toshboboarig’i, Jo’raxo’ja bulog’i, Jo’ymahmud, Jabborsoy* kabilar. Bundan tashqari gidronimlarning ayrimlari agrogidronimlar shaklidadir: *Xonariq, Xo’jaobod, Eshonariq* kabilar.

Gidronimlarning etimologiyasi juda ko‘p olimlarni qiziqtirib kelmoqda va gidronimlarning kelib chiqishiga doir xalq etimologiyasi bilan birga turli xil ilmiy-etimologik kuzatishlar bayon qilinmoqda. Masalan, Farg‘ona viloyatida *Qizariq* degan ariq bor. Bu gidronimning kelib chiqishiga aslida *qiz* so‘zining boshqa ma’nosisi – “Baland tog‘ning quyosh tushmaydigan joyi” degan ma’nosisi asos bo‘lgan. *Qizariq* so‘zi tarkibidagi birinchi komponent aslida *qizil* bo‘lgan, keyinchalik bu so‘z tarkibidagi –il qo‘shimchasi tushib qolgan<sup>72</sup>.

Gidronimlarning etimologiyasi tahlil qilinar ekan, olimlar morfologik, derivation, semantik, tarixiy va dialektalogik tamoyillarga asoslanib ish tutmoqdalar. Masalan, *Rezaksoy* degan gidronim tarkibidagi “rez” so‘zi *mayda ushoq, joy* degan ma’noni bildiradi. *Tutak* kanalning nomi haqida ham turli xil qarashlar bor. SHulardan N.Rahmonning “O‘zbekistonning ko‘hna turkiy run yozuvlari” nomli kitobida ta’kidlanishicha, bu gidronim *tutak-tutuk* so‘zidan olingan bo‘lib, “harbiy ma’muriyat boshlig’i” degan ma’noni bildiradi. N.Uluqov esa bu gidronimning kelib chiqishini fors-tojik tilidan o‘zlashgan *to’tak* so‘ziga bog‘laydi. Uning ma’nosisi “paxtadan



*ip yigirishda ishlatiladigan qovoq naycha”* dir<sup>73</sup>. Ayrim gidronimlar perifrazaviy nomlanish xususiyatiga ega. Masalan, badiiy va publitsistik uslubga oid matnlarda *SHimoliy Farg‘ona kanali - Namangan vohasining hayot nahri // Namanganning hayot nahri, Katta Namangan kanali – Namangan vohasining kumush kamari, Kosonsoy suv ombori – Tog‘ orasidagi dengiz, Norin daryosi va Sirdaryo – Farg‘ona vodiysining oltin kamari, Narpay kanali – Zarafshon vohasining oltin belbog‘i* kabi perifrazaviy nomlar bilan yuritiladi.

Gidronimlarning yasalishi, yasalish usullari o‘zbek tilshunosligida hali keng o‘rganilishi zarur bo‘lgan muammolardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://hozir.org/samarqand-davlat-universiteti-filologiya-fakulteti.html?page=3>
2. <https://hozir.org/samarqand-davlat-universiteti-filologiya-fakulteti.html?page=5>
3. Hasanov H. Yer tili. -T.; 1977. 28. Hasanov H. Geografik nomlar siri. -T.; 1985
4. Nafasov T. Janubiy O’zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi. T.; 1985.



## GEOGRAFIK QOBIQ VA UNING UMUMIY QONUNIYATLARI

Nilufar Aliyeva Qo'chqar qizi  
O'zJOKU Harbiy jurnalistika yo'nalishi talabasi  
(+99891)9442101

**Annotatsiya:** Geografik qobiqning mohiyati shundaki, faqat undagina suv uch xil holatda uchraydi, hayvonlar va o'simliklar yashaydi, tuproq qoplami hosil bo'ladi, turli tog' jinslari va relyef shakllari vujudga keladi, quyosh energiyasi to'planadi va xususiyatlarini o'zgartiradi. Eng asosiysi, hayot mavjud, kishilik jamiyati faqat shu qobiqda paydo bo'lib yashamoqda va rivojlanmoqda.

**Kalit so'zlar:** geografik qobiq, moddalar almashinushi, geologik o'zgarishlar, ritmiklik, transgressiv, regressiv

**Geografik qobiq**, landshaft qobig'i, epigeosfera — Yerning litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferalar o'zaro tutashadigan va bir-biriga ta'sir etadigan qobig'i. Geografik qobiqning tarkibi va tuzilishi juda murakkab. Uning yuqorigi va pastki chegaralari ham shartlidir. Atmosferada Geografik qobiq stratopauza buylab o'tadi deb hisoblaydilar, chunki Yer yuzasining atmosfera jarayonlariga bo'lgan issiqlik ta'siri shu chegaragacha davom etib, litosferada esa gipergenez oblasti quyi qismigacha boradi. Geografik qobiq butun gidrosferani, Yer po'stining yuqori qavatini va atmosferaning quyi qismi (25—30 km qalinlikdagi qatlarni) o'z ichiga oladi. Geografik qobiqning eng qalin qismi 40 km ga yaqin.

Geografik qobiq juda murakkab tuzilgan bo'lib, unda 3 tarkibiy tuzilish darajalari ajratiladi: geokomponentli, geosferali, geotizimli.

Geokomponentli eng sodda tuzilish darajasi. Geokomponentlar yer yuzidagi bir xil holatdagi (qattiq, suyuq, gazsimon) moddalardir. Bular tog' jinslari, tuproq, suv, havo, o'simlik va hayvonlar. Geosferali tuzilish bitta geokomponentdan tashkil topgan geosferalardan iborat.

Geosferalar geografik qobiqning vertikal tuzilishini belgilaydi, ular solishtirma og'irligi bo'yicha vertikal tabaqalanib joylashgan: litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosfera. Litosfera, gidrosfera va atmosfera deyarli bir xil moddalardan tarkib topgan va uzlucksiz, yaxlit qobiqni hosil qiladi. Biosfera esa tirik moddalar tarqalgan qobiq bo'lib, yaxlit qobiq hosil qilmaydi. U boshqa qobiqlar tarkibiga kiradi va yuqorida aytilgan qobiqlarning tutashgan joyida yupqa qatlamni hosil qiladi.

Geografik qobiq uni tashkil qiluvchi qobiqlardango'p xususiyatlariga ko'ra farq qiladi, ulardan asosiyalar quyidagilardan iborat:

1. Geografik qobiq moddiy tarkibi va tuzilishining xilma xilligi. Geografik qobiqda moddalar uch xil, ya'ni qattiq, suyuq va gazsimon holatda uchraydi. Ularning fizik va kimyoviy xususiyatlari turlicha va o'zgaruvchan. Moddalarning tuzilishiga ko'ra, organik, noorganik va aralash turlari ajratiladi.

2. Geografik qobiqda energiyaning turli xillari uchraydi. Quyosh energiyasi kimyoviy jarayonlar, issiqlik va mexanik energiyaga aylanadi.

3. Geografik qobiqda issiqlikning o'zgarishi va to'planishi. Geografik qobiqqa issiqlik koinotidan va Yerning ichki qismidan keladi. Ushbu issiqlikning bir qismi organik moddalarda va ularning qoldiqlarida to'pla-nadi (ko'mir, gaz, neft, torf)

4. Geografik qobiqda uni tashkil etuvchi komponentlar va geosferalarning o'zaro ta'siri va aloqalari natijasida sifat jihatidan yangi hosilalar – geotizimlar vujudga kelgan.

5. Geografik qobiqda hayotning mavjudligi. Tirik organizmlar, jumladan inson uchun faqat shu yerdagina qulay muhit mavjud.

6. Geografik qobiq o'ziga xos qonuniyatlar asosida rivojlanadi. Geografik qobiqning bir nechta qonuniyatlar mavjud bo'lib, eng asosiyalar: bir butunlik, zonallik, azonallik, modda va energiyaning aylanma harakati, ritmiklik. Geografik qobiqning bir butunligi qonuniyati muhim qonuniyatlardan biri bo'lib, barcha komponentlarning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi va ularidan birining o'zgarishi butun qobiqning yaxlitligini buzilishiga olib kelishida namoyon bo'ladi. Chunki, geografik qobiq – tabiat komponentlarining oddiygina yig'indisi bo'lmasdan, balki maxsus xususiyatlarga ega bo'lgan va yaxlit, bir butun rivojlanuvchi sifatiyangi hosiladir. ModdaModda va energiyaning aylanma harakati. Geografik qobiqda modda va energiyaning



aylanma harakati uning bir butunligini ta'minlaydi. Aylanma harakatda litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferadagi moddalar ishtirok etadi. Litosferada, asosan, gipergenez zonasigacha, ya'ni nuragan g'ovak jinslar tarqalgan chegaragacha bo'lган moddalar aylanma harakatda ishtirok etadi. Atmosferada aylanma harakat atmosferaning umumiylar sirkulyatsiyasida namoyon bo'ladi, sayyoraviy miqyosdagi shamollar (havo oqimi)ning shakllanishi sodir bo'ladi. Atmosferaning umumiylar sirkulyatsiyasiga mintaqaviy va mahalliy aylanma harakatlar qo'shiladi. Gidrosferada suvning katta va kichik aylanma harakati sodir bo'ladi. Okeanda suv massalarining gorizontal va vertikal aylanma harakati, quruqlikda suvning daryo o'zamlari bo'ylab oqishi, ko'llarning, muzliklarning va yerosti suvlarining hosil bo'lishi va boshqalar kuzatiladi. Katta ahamiyatga ega biologik aylanma harakat – organik moddalarning hosil bo'lishi va parchalanishida namoyon bo'ladi.

Bir butunlik hamda modda va energiyaning aylanma harakati qonuniyatlarini o'rghanish tabiatdan, uning boyliklaridan to'g'ri foydalanishda juda muhim.

**Adabiyotlar:**

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Egamberdiev R ekalogiya Toshkent Uzbekiston 1994
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr busagasida xavsizlikka taxdid, barkororlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. T. O'qituvchi. 1983 y.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 30-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(25-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.07.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000